

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH MEHANIZIMI

Madiyarova Shaxnoza Ongarbaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19975135>

Kirish.Intellectual mulk obyektlari bugingi kunda butun dunyo bo'ylab iqtisodiy rivojlanishning asosiy poydevori sifatida shakillanmoqda. Shu kabi zamonaviy taraqqiyot sharoitida innovatsiya, ilmiy izlanish va kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish intellektual mulk huquqlarini samarali muhofaza qilish bilan uzviy bog'liqdir. Davlat dasturida ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash startaplar va yuqori texnologiyali ishlanmalarni rag'batlantirish bilan bir qatorda, ularning huquqiy himoyasini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida, Har kimga ilmiy texnikaviy va badiiy ijod erkinligi hamda madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellectual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi va davlat jamiyatining madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxorlik qiladi² deb belgilangan.

Intellectual mulk natijalari inson tafakkuri tomonidan yaratilgan. Inson o'zining aqli bilan, boshqa tirik mavjudodlardan ajralib turadi. Jamiyat rivojlanib borishidagi o'zgarishlar ham insonning aynan aqliy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida va butun jahonda eng birinchi bo'lib inson huquqlarini va u tomonidan yaratilgan intellektual mulkni himoy qiladi. Intellectual mulk huquqi bugingi kunda fuqarolik huquqi bilan tartibga solingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1032-moddasida Intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish asoslari belgilab qo'yilgan. Yurtimizda Intellectual mulk obyektlarini muhofaza qilish eng avvalo kodeks va qonunlar bilan taminlansa va uni himoya qilish vakolati esa tegishli organ tomonidan amalga ochiriladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasida intellectual mulkni himoya qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat organi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-sonli "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda Adliya organlari va muassasalari faoliyat samaradorligini yanada chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida qayta tashkil etilgan bo'lib ushbu markaz o'z faoliyatida ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish, mualliflik huquqi obyektlarini saqlashga qabul qilish faoliyatini muvofiqlashtirish, mintaqaviy brendlarni rivojlantirish, oliy ta'lim, ilmiy tadqiqot tashkilotlari va boshqa tashkilotlarda yaratilgan intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilinishi yuzasidan targ'ibot tadbirlarini o'tkazish va intellectual mulk sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va boshqa ishlarni tashkil qilish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish kabi vazifalarni oshiradi³.

Biz yurtimizda Intellectual mulk obyektlarini milliy qonun hujjatlarimiz bilan himoya qiladigan bo'lsak, bu bilan bir qatorda xalqaro huquq normalari, konvensiya va bitimlar bilan muhofaza qilamiz. Masalan, Jahon savdo tashkilotining Intellectual mulk huquqini savdo

¹ "O'zbekiston-2030" strategiyasi <https://share.google/SyCOLaDV9Y4lr82og>

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-2023

³ <https://ipcenter.uz/site/index>

jihatlarini bo'yicha bitimi "TRIPS", Butun jahon intellektual mulk tashkiloti "BMIT" xalqaro konvensiyasi va Bern konvensiyasi shular qatoridandir.

Ta'kidlash joizki, XXI asirga kelib integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi, xalqaro iqtisodiyot, savdo munosabatlari, ilf-fan va madaniyatni tez suratlar bilan rivojlanishi intellektual mulk egalari huquqlarini samarali himoya qilish masalasini dolzarb qilib qo'yimoqda⁴. Bir qancha davlatlarda intellektual mulk huquqini o'quv fani sifatida kiritishi rivojlantirishga jiddiy turtki berdi masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va O'zbekiston.

Bu yili intellektual mulkni himoya qilishga kata etibor qartildi. "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va elektron xizmatlarni keng joriy etish chora-tadbirlari nazarda tutilgan⁵.

Xulosa

Intellektual mulk huquqiga kata etibor qartilishi bu insonning eng avvalo o'ziga va davlatga ishonishini orttiradi va shu orqali intellektual mulk natijalari ixtirolar va brend kabilar jahon bazoriga kirib boradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. A.B.Gafurov. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning dolzarb masalalari. Monografiya. Tashkent. 2017 19-b
3. <https://ipcenter.uz/site/index>
4. "O'zbekiston-2030" strategiyasi <https://share.google/syCoLaDV9YIr82og>

⁴ A.B.Gafurov. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning dolzarb masalalari. Monografiya. -Tashkent. 2017 19-b.

⁵ "O'zbekiston-2030" strategiyasi <https://share.google/syCoLaDV9YIr82og>